

3 dekabr Xalqaro nogironlar kuni

3 dekabr Xalqaro nogironlar kuni sifatida Respublikamizda keng nishonlanishi, hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosatining yaqqol isbotidir. Ushbu kunni nishonlashdan asosiy maqsadlardan biri butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogiron bo'lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, imkoniyati cheklanganlarning manfaatlari, huquqlari inobatga olinishini, barcha mamlakatlarda nogironlarning qadr-qimmatini himoyalovchi qonunlar va tartib-taomillarning joriy etilishini ta'minlab, barcha uchun ochiq va do'stona munosabatda bo'lgan jamiyat qurishdan iboratdir.



Ushbu kun 3 dekabr Xalqaro nogironlar kun munosabati bilan bugun Olmazor tumanidagi imkoniyati cheklangan 106 sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati o'quvchilari uchun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti raxbariyati hamda institut yoshlar ittifoqi jamoasi tashabbusi bilan Mehrli qo'llar mehr ulashmoqda shiori ostida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda Yer resurslarini boshqarish fakulteti bir guruh tashabbuskor talabalari va xodimlari ishtirok etib, o'quvchilarning



ko'nglini ko'taruvchi she'riy va musiqali chiqishlari bilan ishtirok etib bolajonlarni xursand qilishdi. Tadbir bayramona tarzda bo'lib o'tdi. Tadbir davomida maktab o'quvchilariga o'quv qurollari va esdalik sovg'alari tuhfa etildi. Maktab o'quvchilari tomonidan ijro qilingan kuy-qo'shiqlar, davraga ko'tarinki rux va o'zgacha zavq bag'ishladi. Insonlarga mehr ulashish, ularga bir lahzalik shodlik baxsh etish insoniylikning eng oliy ko'rinishidir, shu boisdan barchani bir-biriga mehrli bo'lishi tilakdoshimiz.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti